

RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA KORXONALAR FAOLIYATINI DIVERSIFIKASIYALASHNING AHAMIYATI VA KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINING ZARURIYATI

Ataqulov U.M.

Alfraganus University dosenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot davrida korxonalar faolitatini diversifikasiyalashning ahamiyati va ko'chmas mulk obyektlarining zaruriyati bo'yicha tahlil ishlari olib borilgan. Shuningdek, ko'chmas mulk obyektlarini samarali boshqarish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, diversifikasiya, ko'chmas mulk obyektlari, korxonalar, PropTech, IT va raqamli xizmatlari, sun'iy intellekt, raqamli infratuzilma.

Аннотация. В данной статье анализируется важность диверсификации деятельности предприятий в эпоху цифровой экономики и потребность в недвижимости. Также разработаны практические предложения по эффективному управлению недвижимостью.

Ключевые слова: цифровая экономика, диверсификация, недвижимость, предприятия, PropTech, IT и цифровые услуги, искусственный интеллект, цифровая инфраструктура.

Annotation. This article analyzes the importance of diversifying the activities of enterprises in the era of the digital economy and the need for real estate. Also, practical proposals for the effective management of real estate are developed.

Keywords: digital economy, diversification, real estate, enterprises, PropTech, IT and digital services, artificial intelligence, digital infrastructure.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot zamonaviy global iqtisodiy tizimning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. U axborot-kommunikasiya texnologiyalari va raqamli platformalarga tayanadi. Bugungi kunda raqobat muhitida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun faqat bitta yo'nalishda ishlash xavfli bo'lib, ular diversifikasiya orqali barqarorlikka erishmoqda.

Diversifikasiya — bu faoliyatni turli yo'nalishlarga ajratish, yangi bozorlar va mahsulot turlarini o'zlashtirish jarayoni bo'lib, raqamli iqtisodiyotda u strategik afzallik kasb etadi [3]. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma bilan bog'liq ko'chmas mulk obyektlari (logistika xablari, ofis binolari va boshqalar) ham korxonalarning raqamli transformasiya jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatini diversifikasiyalash hamda ko'chmas mulk obyektlarining tadbirkorlik subyektlariga zarurligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda jahon miqyosida keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro ilmiy manbalarda ushbu masalaga oid keng qamrovli nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotlarda asosiy urg'u raqamli iqtisodiyot sharoitida

korxonalar faoliyatini diversifikasiyalashning ahamiyati va ko'chmas mulk obyektlarining iqtisodiy faoliyatdagi zaruriyati bo'yicha mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. PwC (Price water house Coopers) hisobotida raqamli iqtisodiyot korxonalar uchun yangi biznes modellarni yaratish va diversifikasiya imkoniyatlarini oshirishi ta'kidlangan [1].

Al-Shammari va hammualliflar raqamli qobiliyatlar va diversifikasiya strategiyalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab bergan [4].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotiga ko'ra, raqamli iqtisodiyotda diversifikasiya iqtisodiy shoklarga qarshi barqarorlik vositasi sifatida namoyon bo'ladi [5].

Ares Management va PwC Germany hisobotlarida raqamli ko'chmas mulkning (PropTech) roli ta'kidlangan bo'lib, intellektual binolar, sensor tizimlar va sun'iy intellekt orqali binolar samaradorligi oshirilayotgani qayd etilgan [2].

SpringerLink nashrida PropTech texnologiyalari ko'chmas mulk bozorida raqobat va ma'lumot shaffofligini kuchaytirishi ta'kidlanadi [3].

Deloitte "Global Real Estate Outlook" hisobotida raqamli infratuzilma ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) standartlari bilan uyg'un rivojlanayotgani qayd etilgan [6].

Umuman, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotda diversifikasiya va ko'chmas mulk strategik jihatdan o'zaro bog'liq va korxonalar barqarorligi uchun muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy usulardan foydalanildi: tahliliy usul - xalqaro manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi; taqqoslama tahlil - raqamli iqtisodiyotga mos diversifikasiya modellari taqqoslandi; iqtisodiy tahlil usuli - raqamli transformasiya va ko'chmas mulk bozori o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida diversifikasiya qilgan korxonalarning moliyaviy barqarorligi 25–30 foizdan yuqoriroq bo'ladi shuningdek, ko'chmas mulk obyektlariga raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda resurs tejamkorligi 20–25 foizdan oshadi [8].

PropTech platformalaridan foydalanish binolarni avtomat boshqarish, ijara munosabatlarini raqamlashtirish va ma'lumotlar shaffofligini ta'minlaydi. Diversifikasiya va raqamli ko'chmas mulk strategiyasi o'zaro integrasiyalangan holda barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, texnologik diversifikasiyaning IT va raqamli xizmatlar yo'nalishida korxonalarning moliyaviy barqarorligi 28,5 foiz, resurs tejamkorligida esa 22 foizni tashkil qilgan.

Geografik diversifikasiyaning yangi eksport bozorlari yo'nalishida korxonalarning moliyaviy barqarorligi 25 foiz, resurs tejamkorligida esa 18 foizni tashkil qilgan.

Mahsulot va xizmat diversifikasiyaning raqamli mahsulot yo'nalishida korxonalarning moliyaviy barqarorligi 31 foiz, resurs tejamkorligida esa 25 foizni

tashkil qilgan.

Jadval

Diversifikasiya qilgan korxonalarning moliyaviy barqarorligi va resurs tejamkorligi

№	Diversifikasiya turi	Asosiy yoʻnalish	Moliyaviy barqarorlik (%)	Resurs tejamkorlik (%)
1	Texnologik	IT va raqamli xizmatlar	28.5	22
2	Geografik	Yangi eksport bozorlari	25	18
3	Mahsulot	Raqamli mahsulotlar	31	25
4	Koʻchmas mulk asosida	PropTech	30	27

Koʻchmas mulk diversifikasiyaning PropTech yoʻnalishida korxonalarning moliyaviy barqarorligi 30 foiz, resurs tejamkorligida esa 27 foizni tashkil qilgan. PropTech - bu “Property” (koʻchmas mulk) va “Technology” (texnologiya) soʻzlarining birikmasidan tashkil topgan tushuncha boʻlib, koʻchmas mulk sohasida raqamli yechimlarni qoʻllashni bildiradi. PropTech raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi boʻlib, koʻchmas mulkni sotish, sotib olish yoki ijaraga olish jarayonlarini soddalashtirish, bozor tahlili, narx prognozi va investitsion xavf tahlilini amalga oshirish yoʻnalishlarda oʻz aksini topadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona faoliyatini diversifikasiyalash nafaqat yangi mahsulot va xizmatlar yaratishni, balki raqamli infratuzilmani samarali boshqarishni ham talab etadi. Koʻchmas mulk obyektlarining raqamli transformasiyaga moslashishi (masalan, “aqli ofislar”, logistika markazlari) raqamli iqtisodiyotning “fizik bazasi”ni tashkil etadi [7].

Tadqiqot natijalariga koʻra, raqamli iqtisodiyotda diversifikasiyani amalga oshirishda IT-infratuzilma, inson kapitali va raqamli koʻchmas mulk obyektlarining moslashuv darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega [8].

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot davrida korxonalar faoliyatini diversifikasiyalash va koʻchmas mulk obyektlarini samarali boshqarish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu yoʻnalishda innovasion texnologiyalar, raqamli infratuzilma va PropTech yechimlari muhim rol oʻynaydi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida diversifikasiya faqat iqtisodiy samaradorlik emas, balki barqarorlik va raqobatbardoshlikni ham taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. PwC (2023). The New Digital Economy: Business Transformation Report.
2. Ares Management (2023). Digital Real Estate Investment Outlook.
3. SpringerLink (2023). Digital Transformation in the Real Estate Industry.
4. Al-Shammari, A. et al. (2023). Digital Capabilities and Corporate Diversification. Journal of Business Research.
5. OECD (2022). Digital Transformation and Economic Resilience.
6. Deloitte (2023). Global Real Estate Outlook 2023.